ISSN: 2181-3914

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

Volume 3 Issue 2 October 2024



NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUNDARIJA / CONTENT

Nigora Murodova..... **5**
Lingvistik atlaslar tuzish: tahlil va talqin

Махмуд Равшанов..... **11**
Исследование микро и макротекста тюркоязычных источников

Rano Yusubova..... **17**
Lingvopoetika va intertekstuallik masalalari

Gulchehra Boltayeva..... **25**
Rauf Parfining so‘z qo‘llash mahorati

Furqat Nurmanov..... **33**
O‘zbek tili fonetikasida tovushlar tasnifining takomillashishi

Ozoda Anorqulova..... **39**
Qur’oni Karimda “oila” konsepti bilan bog‘liq ayrim masalalar izohi

Gulsanam Norova..... **48**
Urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizmlar

Islamova Dinara..... **59**
Transpozitsiyani yuzaga keltirishda tilning ifoda-tasviriy vositalarining o‘rni

Xo‘janiyazova Shahnoza..... **64**
“Sab’ai sayyor” asaridagi qavm-qarindosh ma’nosini ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili

Nargiza Gulomova..... **71**
Alisher Navoiy mualliflik korpusida statistik tahlillarning muhim jihatlari

Azamat Atayev..... **82**
Xorazm adabiy muhitida arab tilidagi manbalarning paydo bo‘lish omillari

Dilnoza Sobirova..... **90**
Tibbiy reklama matnlarida kreollashtirilganlik, mantiqiy uzilish va interpretativlik

Дилором Шамсиева, Нодира Каюмова..... **96**
Функционирование синтаксических фразеологизмов в языке средств массовой информации

"SAB'AI SAYYOR" ASARIDAGI QAVM-QARINDOSH MA'NOSINI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING SEMANTIK TAHLILI

SHAHNOZA XO'JANIYAZOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida qo'llangan shaxs nomlarini ifodalovchi ot leksemalar leksik-semantik, tarixiy-etimologik jihatdan misollar yordamida tahlilga tortilgan. Ta'kidlash joizki, asar so'z boyligida ma'no kengayishi va ma'no torayishiga uchragan leksemalar ham mavjud. Darhaqiqat, bu maqolada o'z va o'zlashma qatlamga oid so'zlarning sinonimik qatorlari haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sema, oγlan//oγul, bin, valad, qïz, nasl, qardáš, tav'amán.

Аннотация. В данной статье на примерах с лекцико-семантической, историко-этимологической точки зрения анализируются именной лексемы, обозначающие личные имена, исползованные в эпосе Алишера Навои «Сабъаи сайёр». Стоит отметит, что в словарный запас произведения входят лексемы с расширенным и суженным значением. Фактически, в этой статье также говорится о синонимическом ряде слов, относящиеся к родному и присвоенному слою.

Ключевые слова: сема, оγлан//оγул, бин, валад, қїз, насл, қардáš, тавъамáн/ сема, оглан//сын, бин, валад, девочка, отпрыск, брат.

Annotation. In this article, using examples from a lexico-semantic, historical and etymological point of view, the nominal lexemes denoting personal names used in Alisher Navoi's epic "Sabai Sayer" are analyzed. It is worth noting that the vocabulary of the work includes lexemes with expanded and narrowed meanings. In fact, this article also talks about a synonymous set of words related to the native and assigned layer.

Key words: sema, oγlan//oγul, bin, valad, qïz, nasl, qardáš, tav'amán.

Kirish. Dunyo tilshunosligida buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini sinchiklab o'rganish, ular tomonidan yaratilgan olamshumul xarakterdagi asarlarning til xususiyatlari, chunonchi, so'z boyligini atroflicha tahlil qilish, ona tili leksikonini boyitish va takomillashtirishdagi rolini ko'rsatish, ona tili sofligini saqlash, uni ichki manbalar hisobiga kengayish jarayonlarini tahlilga tortish, ayni chog'da, har qanday til so'z boyligining taraqqiy etishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning o'rnini tahlil qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, o'zbek adabiy tilining tom ma'nodagi asoschisi Alisher Navoiy qalamiga oid nasr hamda nazmda bitilgan

badiiy, tarixiy, ilmiy asarlarning til xususiyatlari dunyo Navoiyshunoslari diqqatini bir necha asrlar mobaynida o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qarindoshlik atamalarining leksik-semantik sohasi etnik guruh vakillari tomonidan dunyoni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, qarindoshlik munosabatlari qadriyatlari ko‘lamini o‘rnatish imkonini beradigan omildir [Saidova, 2023:348]. Turkiy qavm-qarindoshlik terminlarini keng ko‘lamda tahlil qilish, ularning etimologiyasini aniqlash borasida L.Pokrovskaya, V.Sinsiuslarning hissasi katta. O‘zbek turkologlaridan I.Ismoilov monografiyasi hamda qator maqolalarida turkiy qavm-qarindoshlik terminlarini ko‘proq o‘zbek va uyg‘ur tillari materiallari misolida boshqa turkiy tillarga qiyos qilgan hamda adabiy tildagi muhim xususiyatlarini batafsil bayon etgan [Mamatov, 2009:15.]. Turkiy so‘zlarning aksariyati ko‘plab qarindosh tillar uchun umumiy, ya’ni mushtarak qatlam ekanligi ma’lum. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asl turkiy qatlamga mansub so‘zlar umumturkiy leksika, umumturkiy qatlam tushunchalari ostida tahlil qilinadi [Begmatov, 1981:53]. Zotan, qarindoshlik terminlari hozirgi turkiy tillar leksikasining arxaik qatlamidir [Abdurasulov, 2009:55-56]. Ma’lumki, har qanday terminlar shu jumladan, qavm-qarindoshlik atamalari ham qanchalik turg‘un bo‘lmasin, zamon o‘tishi, jamiyat, oila, nikoh shakllari va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan qavm-qarindoshlik terminlarining ma’no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo‘ladi [Ziyotova,. 2023:84].

Tadqiqot metodologiyasi. Qarindoshlik terminlarining leksik qatlami o‘zbek tili lug‘at fondining ajralmas qismidir [Saidova,2023:358]. Bu so‘z hozirgi zamon turkiy tillarning ko‘pchiligida mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida *qarindosh*, uyg‘ur tilida *qerindash*, qozoq tilida *qarshdas*; kirg‘iz tilida *karshdash*; turkman tilida *garshdash* va qoraqalpoq tilida *qarshdas* kabi fonetik variantlari bilan ma’lumdir [Ismoilov,1966:72]. Tilshunoslikda yozma va qo‘lyozma manbalar leksikasini statistik usulda o‘rganish bo‘yicha bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Chunonchi, ““Boburnoma”-til qomusi” monografiyasida qarindoshlik, yaqinlik atamalarining 98% qadimgi turkiy til davrida qo‘llangan terminlar tashkil etadi [Xolmanova, 2021:181] “Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi”da jami 18, chunonchi, XMda 11 (0,54%), HSHAda 5 (0,55 %), HPMda 2 (0,21 %) ta [Xo‘janiyazova, 2022:64],“Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi”da hammasi bo‘lib, yigirma uchta [Abduvaliyeva, 2017:83] leksik birlik mavjud ekanligi tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar. Navoiyning “Sab’ai sayyor” asarida qarindosh-urug‘ nomlarini ifodalovchi leksemalar alohida ahamiyat kasb etadi. Qavm-qarindoshlik, yaqinlikni ifoda etuvchi leksemalar asosan oilada insonning qanday o‘ringa egaligini ham belgilaydi. Bularni, o‘z navbatida, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin [Pokrovskaya, 1961: 4-35]:

1) umumiy tarzda "qarindosh" tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar:

qavm, nasl, nasab, jigargoša, avlád, banï, xánaváda;

2) qarindoshlik tushunchasini individual tarzda ifodalovchi so'zlar: ***oγlan//oγul, bin, valad, qïz, qardásh, farzand, ata, ana, siŋil, ayal, záda, yigit, tav'amán- egizak;***

3) nikohdan keyin voqelanadigan qarindoshlik istilohi: ***arus.***

Qavm so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, "bir avloddan tarqalgan, o'zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan kishilar birlashmasi; urug', aymoq, qabila" (O'TIL, V, 201), eski o'zbek adabiy tilida 1) toifa; kishilar to'dasi, guruhi; 2) urug', aymoq; 3) el, xalq sememalarida qo'llangan (ANATIL, III, 422). Asar matnida ham ayni shu ma'noda o'n uchta o'rinda ifodalangan:

1) toifa; kishilar to'dasi, guruhi:

Andakïm Mehrni qïlïb nášád,

Qavmu *xaylïnï ayladï ázád* (S.S, 528).

2) urug', aymoq:

Dam-badam iztiráb aŋa artïb,

Qavmu *xaylï bilä fiγán tartïb* (S.S,502).

3) el, xalq:

Qavmu *xaylï barï qalïb γáfil,*

Ul qará tundä mastu láya'qïl (S.S,475).

"Avlod, sulola" ma'nosini ifodalovchi forscha *xánaváda* (NAL,660) leksemasi arabcha *avlád*, *banï* (ANATIL, I, 30, 160) o'zlashmalari bilan sinonimik qatorni yuzaga keltirgan:

Šahrisabz ahlï zádasidïn men,

Sa'dniŋ ***xánaváda****sidïn men* (S.S,481).

Kim: Havádis erïdürür álam,

Andïn ázád emas ***banï*** *ádam* (S.S,403).

Eski o'zbek adabiy tilida *jigargoša* o'zlashmasi 1) aziz farzand; jigarpora; 2) yaqin, qarindosh; avlod (ANATIL, I, 574) ma'nolarida qo'llangan:

1) aziz farzand; jigarpora:

Šáh xud Mehr ištiyáqïdïn,

Bal jigargošasi firáqïdïn (S.S,528).

2) yaqin qarindosh; avlod:

Tïγ ilä bayrïm aylasam pára,

Čun jigargošam ittï, ne čara? (S.S,528).

"Ona" ma'nosidagi *ana* so'zining antonimi hisoblanmish *ata* leksemasi VII-X asr qadimgi turkiy til manbalarida alohida holda mavjud emas. Uning ilk bor qo'llanishga kirish vaqti aynan XI asrga to'g'ri keladi [Dadaboev, 2014: 8-9].

A.Pokrovskayaning ta'kidlashicha, ozarbayjon, boshqird, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, turk, turkman, uyg'ur tillaridagi *ata* shakli uning qadimgi turkiy yodnomalardagi shakliga mos keladi [Pokrovskaya, 1967:25].

"Farzandli, bola-chaqali er kishi (o'z bolalariga nisbatan) ma'nosidagi *ata* (O'TIL, 3, 151) leksemasi qadimgi turkiy til va tubutlar tilida *ata* (DTS, 65; DLT, I, 113) eski o'zbek adabiy tilida 1) ota, padar; 2) boshliq, oqsoqol, hurmatli; 3) ota; buyuk, ulug' (ANATIL,II,533) ma'nolarida qo'llangan. Asar tilida faqat "ota, padar" semasida ishlatilgan:

Atasi qïrq yïl surïb xánlïq,

Qïlmïš erdï ulusqa sultánlïq (S.S, 397).

V.V.Radlov o'zining lug'atida *ana* so'zining butun bir turkiy tillardagi va shevalardagi *ana, ena, änä, enäi* kabi ko'rinishlarda keltirgan. O'zbek tilida keng qo'llanadigan *ana* varianti adabiy til uchun xizmat qilgani holda, o'zbek tili sheva va dialektlarida *aba, acha, eba, aya, ena, opa, buvi, buv – mat, mama* tarzida ishlatilib kelinmoqda [Ismoilov, 1966: 64].

"Volida, ona" (ANATIL, II, 522) semasidagi *ana* leksemasi o'g'uzlar tilida *aba* (DLT, I, 113) tarzida qo'llangan. Asar leksikasida quyidagicha:

Meni bu nav' váqïf ayladï Lát,

Ki, tugangan emïš anamγa hayát (S.S,441).

O'g'il va qizga nisbatan qo'llanuvchi *farzand* istilohi "ota-onaning bolasi" (TjRS, 406), so'zlashuv tilida *f* tovushi *p* tovushiga almashtiriladi, ba'zan oxirgi *d* tovushi talaffuz qilinmaydi (O'TEL, III, 232). Ushbu o'zlashma eski o'zbek adabiy tilida "o'g'il-qiz, bola; avlod" (ANATIL, III, 322), hozirgi o'zbek adabiy tilida "bitta ota-onadan dunyoga kelgan bola; o'g'il yoki qiz (ota-onaga nisbatan)" (O'TIL, IV, 328) ma'nolarida ishlatilmoqda:

Ul kelïb tiyrä rosadaf mánand,

Taŋ yoq, olmaq sadafγa dur ***farzand*** (S.S,333).

Dostonda jins nuqtai nazardan farqlanuvchi shaxs nomlari ham salmoqli o'ringa ega. Chunonchi, *yigit* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida "umuman yosh erkak, yosh kishi" (O'TIL, II, 266), Navoiy asarlar tilida "yigit, o'smir, yosh" (ANATIL, I, 78) ma'nosida ishlatilgan:

Sen agar záhir ettïŋ itliknï,

Men saŋa korguzay ***yigit****lïknï* (S.S,541).

"Shariat yo'li bilan nikohlanmagan ota-onadan tug'ilgan bola; o'g'il bola farzand" (O'TIL, I, 437) ma'nosini anglatuvchi *valad* (ANATIL, I, 355) leksemasi *záda* (ANATIL, I, 642) va *oγul* o'zlashmalari bilan sinonimik qatorni voqelantiradi:

Balki ádam ***oγulluγïŋdïn*** *šád,*

Valadiŋγa *jahán elï avlád* (S.S,288).

L.Budagov lug‘atida *xátun, xadun, kat'* leksemalari "zavja; xotin kishi; xonim" ma'nolarida qo‘llangan (BD, I, 524). *Qatun//xátun* o‘zlashmasining ma'noviy taraqqiyot yo‘lini tubandagicha sharhlash mumkin. Dastlab, u "zodagon ayol, xonim, malika", so‘ngra "zavja; ayol kishi" ma'nolarini anglatish uchun xizmat qilgan. Lekin "beka, xonim" ma'no ottenkasi ushbu so‘z tomonidan ifodalanavergan [Dadaboyev., Hamidov., Xolmanova Z, 2007: 32]. Tadqiqotlarda e'tirof etilishicha, juda qadim zamonlarda turkiy tilga kirib kelgan bu leksik birlik ilk marta qadimgi run bitigi "Kultegin" bitiktoshida "xonima, zodagon ayol, oqsuyak ayol" ma'nosida *qatun* fonetik variantida ishlatilgan [Abduvalieva, 2017: 51].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 1) jins jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko‘rish qobiliyatiga ega odam; ayol; 2) biror erkak nikohidagi ayol (O‘TIL, IV, 415) ma'nosidagi *zaifa* o‘zlashmasi *ayál* so‘zi bilan sinonimik qatorni voqelantirgan:

Šáh čun bïldï andaq afsána,
Qïldï ta'yin ***zaifa****lär yana* (S.S,541).

Iffati zabtïdïn jahán ičrä,
El ***ayali*** *kirïb amán ičrä* (S.S,330).

"Xotin, ayol" jinsini ifodalovchi so‘zlarning ma'noviy tasnifi ularni "erga chiqqan, turmush qurgan" hamda "erga chiqmagan, turmush qurmagan" tarzida guruhlash zarurligini ko‘rsatadi. *Tiši* leksemasi bilan "erga chiqqan, erga tekkan" ma'nosini ifodalovchi so‘zlar ma'nodoshlik qatorida faqat "Devon" da ilk bor ishlatilgan *urağut* leksemasi faoliyat ko‘rsatgan: *Urağut oğul toğurdï "Xotin o‘g‘il farzand ko‘rdi"* (11,84) [Dadaboyev, 2022: 353].

Kelin so‘zi turkiy tillarda nikohdan keyin paydo bo‘lib, o‘zbek, uyg‘ur, qoraqalpoq tilida *kelin* qozoq tilida *kelin;* turkman tilida *gelin*, xorazm shevasida *geli:ng* kabi fonetik variantlari mavjud [Abdullaev, 1966: 31]. O‘rxun-Enasoy bitiklari tilini tadqiq qilgan V.V.Radlov va P.M.Melioranskiylar *kelin* leksemasi *kel* fe'liga *-in* so‘z yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalganini ta'kidlaydilar [Radlov, 1897: 59]. Eski o‘zbek adabiy tilida ikkita: 1) kelin, kelinchak; 2) erta bahor chechaklari (ANATIL, I, 117) asar matnida ham ayni shu ma'nolarda qo‘llangan:

1) kelin, kelinchak:
Čun saxar xutbasinï čektï xurus,
Jilvagar buldï kün nečukki ***arus*** (S.S, 415).
2) erta bahor chechaklari:
Kok ***arus****ï tonin qïlïb zarkaš,*
Čiqtï andaqki gulruxi mahvaš (S.S,428).

"Oltin yoruq"da *qïz* leksema "qiz (farzand)" ma'nosida ishlatilgan (DTS,449). Mahmud Koshg‘ariy *qïz* ma'nosida tilkÿ (tulki) so‘zi ham qo‘llanishini yozadi: "tilkÿ"

(tulki) so‘zi bilan qiz bolaga kinoya qilinadi. Biron xotin tuqqanda doyadan tulki tug‘dimi yoki bo‘rimi deb so‘raladi, yani qizmi yoki o‘g‘ilmi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo‘lganlari uchun tulkiga, o‘g‘il bolalar ulardagi botirlikka asosan bo‘riga o‘xshatiladi” [Roziqova, 2019: 138].

“DLT”da *qïz* tub so‘zining yuqoridagi semalardan tashqari “cho‘ri, joriya”, “bo‘yi etgan va uyda o‘tirgan qiz” (I,315) ma’nosida ham qo‘llangan.

“Qiz bola, bokira” (ANATIL, IV, 48) semasidagi *qïz* atamasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma’no kengayishiga uchrab, quyidagi ma’nolarda qo‘llanmoqda: 1) balog‘at yoshiga etmagan ayol; 2) xotin jinsiga mansub farzand (o‘z ota-onasiga nisbatan); 3) balog‘atga etmagan, ammo hali erga tegmagan ayol; ma’suma, bokira; 4) qizlarga yoki yosh juvonlarga nisbatan murojaatda ishlatilib, hurmat, erkalash, o‘ziga yaqin olish (O‘TIL, 5, 276). Asar tilida tubandagicha:

Yettï ïqlïm šáhidin etï qïz,

Har biri lutfu husni γáyatsiz (S.S,318).

Xulosa va takliflar. “Saba’i sayyor” dostonida qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma’nosini ifodalovchi o‘z qatlamga oid so‘zlar salmoqli qo‘llangan.

1. Tub turkiy so‘zlarni gneologik jihatdan qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek tili hamda hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan qiyosiy o‘rganish natijasida umumiy va farqli xususiyatlari mavjudligi aniqlandi.

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mazkur istilohlarning ko‘pchiligi faol qo‘llanadi, ba’zilari esa iste’moldan chiqqan.

Asar leksikasi tarkibida qavm-qarindoshlik, yaqinlik ma’nosini ifodalovchi atamalar mavzuviy guruhlarga ajratilib, tahlilga tortildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab’ai sayyor. – Toshkent. 2013. – 270-635 b.
2. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий– тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 55-56.
3. Абдувалиева Д. Алишер Навоийнинг тарихий асарлар лексикаси. Фил фан.бўйи.ф.док дисс... (PhD)– Тошкент. 2017. – Б. 51.
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фан, I. 1966. –Б. 31.
5. Бегматов Э. Ўзбек тили тарихий лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.53.
6. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”да эркак жинсини ифодаловчи лексемалар. Лингвист V. – Тошкент: Akademnashr, 2014.– Б. 8-9.

7. Dadaboyev H. "Devonu lug'otit turk"da ayol jinsining ifodalanishi. "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Toshkent. 2022. 19- oktabr. –B. 353.

8. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. XIV аср иккинчи ярми- XX аср боши. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 32.

9. Зиётова С. "Меҳробдан чаён" лексикаси. Монография. – Тошкент. 2023. – Б. 84.

10. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 72.

11. Маматов А. Ўзбек тили лексикологиясидан материаллар //Андижон тип шеваларда қариндош-уруғ атамаларининг қўлланиши. – Тошкент. 2009. – Б.

12. Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН СССР, 1967. – С. 25.

13. Радлов В.В. Die Alttrűkischan schriften. – СПб., 1897. – С. 59. 12.

14. Розиқова Г. "Девону луғотит турк" асарида қўлланган шахс номлари гуруҳига оид лексемаларнинг семантик хусусиятлари. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Тошкент. 2019. №12.– Б. 138.

15. Saidova M. Qarindoshlik hodisasiga yondashuvlarning shakllanish tarixi. "Antropotsentrik tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I kitob. – Farg'ona. 2023. – B. 348.

16. Saidova M. Namangan o'zbek shevalaridagi uda, jiyan terminlarining etimologiyasi va leksik–semantik xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Тошкент. 2023. №3. 2023. – B. 358.

17. Холманова З. Бобурнома лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 76.

18. Xo'janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Fil fan.bo'yi.f.dok diss... (PhD). – Toshkent. 2022. – B. 64.

Shartli qisqartmalar

ANAL – 2013. – 2006. Фозилов Э.И. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент.

ANATIL – 1983-1985. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. –Тошкент: Фан.

DLT – Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. – 461 б.

NAL – Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – 782 б.

NTL – Юсуф Б. Навоий тили луғати. Т.I. Тошкент, 2018. – 493 б.

S.S. – 2013. Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab'ai sayyor. – Toshkent.

TjRS – Таджикско-русский словарь. – М.: Государственное издательство иностранных и национальный словарей, 1954. – 789 с.

O'TIL– Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. – 679 б.; Т. II. 2006. – 671 б.; Т. III. 2007. – 687 б.; Т. IV. 2008. – 608 б.; Т. B. 2008. – 591 б.

O'TEL– 1) Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет.

2) Раҳматуллаев Ш. 2001. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). –Тошкент: Университет.

3) Раҳматуллаев Ш. 2009. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (форсча-тожикча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). –Тошкент: Университет.